



## GEOGRAFIYA TA'LIMIDA MAKTAB O'QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Rustamova Maftuna Anvarjon qizi  
Fayzullayeva Sadoqat Doniyor qizi  
*Urganch davlat universiteti magistrantlari*

**Annotasiya:** Ushbu maqola Geografiya ta'limida maktab o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda dunyoqarash tushunchasi, dunyoqarashni shakllantirishda didaktik vosita va usullarning ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Dunyoqarash, didaktik vositalar, didaktik jarayon, didaktik materiallar, Eratosfen, Ptolemy

Dunyoqarash subyektiv voqe'likni baholovchi qarorlar to'plamidir. Atrof-olamni anglashga harakat qilish natijasi o'laroq kelib chiqadi. Dunyoqarash diniy, falsafiy, ilmiy bo'lishi mumkin.

Dunyoqarash - dunyoga va insonning undagi o'rniqa, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog'liq. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o'z aksini topadi. Shaxsnинг dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'langan. Dunyoqarash insonning o'zini va dunyonи zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi [2].

Demak, har qanday ta'lim jarayonida o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda yetakchi vositalar fan nuqtai - nazaridan bo'lishi shartdir. Shu sababli fanlarni o'qitishda ta'lim vositalaridan foydalanib dars jarayonlarini boshlang'ich sinflardan shakllantirib borish lozim. Geografiya faniga tegishli bo'lgan bilimlar asosan boshlang'ich kurslardan shakllantirilib boriladi. Bu bilimlar yuqori sinflarda murakkablashib hayotiy tabiiy va ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlarni real voqelikda anglashdan boshlanadi. Har qanday fan manbalari asosida o'quvchida dunyoqarashni shakllantirish boshlang'ich sinflarda shakllantirilgan dunyoqarashdan boshlanishini ko'rishimiz mumkin.

1. Agar o'quvchi bolaligidanoq ma'lum bir mafkuraviy muhitga singib ketgan bo'lsa, keljakda u ham xuddi shu mezon bo'yicha odamlar yashaydigan muhitni izlaydi. Agar bolalikdan dunyoqarashning aniq tamoyillari belgilanmagan bo'lsa, o'smirlik davrida bola to'g'ri va xavfsiz qarorlar qabul qila olmaydi, odamlar va hodisalarga munosib baho bera olmaydi.

2.O'smirlar kattalar dunyosiga juda ishonmaydilar va ko'pincha o'zlariga yuklangan qadriyatlarni inkor etish orqali o'zlarini tasdiqlaydilar. Ya'ni, agar ichki doirada shaxsda barqaror tamoyillar shakllanmagan bo'lsa, u holda inson o'zini





topadigan ijtimoiy guruhning har qanday nufuzli rahbari uning dunyoqarash pozitsiyasiga ta'sir qilishi mumkin.

Shaxsning shakllanishiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan dunyoqarashning tarkibiy qismlari:

Shaxs tomonidan olingan bilimlar.

Hissiyotlar, ya'ni odamlarning muayyan hodisalar yoki muhitga munosabati.

Odamlar hayotda qo'llaydigan qoidalar.

Amallar va harakatlar.

Inson bilimlarni muloqot orqali va o'qish orqali oladi.

Bular ikkita muhim ma'lumot manbalari bo'lib, ular o'z navbatida atrofdagi dunyoga hissiy reaktsiyalarni va inson qabul qiladigan va unga muvofiq muayyan harakatlarni amalga oshiradigan hayot qoidalarini keltirib chiqaradi.


Shunday qilib, hamma narsaning asosi bilim yoki ma'lumotdir. Odamlar turli xil ma'lumotlarni turli yo'llar bilan qabul qiladilar va ularga munosabat bildiradilar. Agar odam bir xil turdag'i salbiy ma'lumotlar bo'ladigan muhitga joylashtirilsa, odam o'zgaradi, uning xatti-harakati va his-tuyg'ulari o'zgaradi, u yanada tajovuzkor, g'azablangan bo'ladi. Agar inson ijobjiy ma'lumot olsa, u yaxshi tomonga o'zgaradi. Qaysi ma'lumotni qabul qilayotganingizni va sizning ijtimoiy doirangiz nima ekanligini o'yab ko'ring.

Bugungi kunda, ta'lim tarbiya jarayonida dunyoqarashni shakllantirish, yoshlikda olingan bilimlarni reproduktiv metod orqali tahlil qilish va yangi blimlarni berish lozim deb bilamiz.

Ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatimizda kechayotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari bilan uyg'un holda rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirishga e'tibor qaratildi. Bu borada vazifalar Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham qayd etildi. Xususan, unda O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsad qilib qo'yilgan ekan, bunga faqat jadal islohotlar, ilm, ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olishimiz ta'kidlandi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "... Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha - ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik".<sup>6</sup>

Shundan kelib chiqqan holda, zamонави о'кув-didaktik vositalar asosida о'қитиш, о'кувчиларнинг билим олиш имкониятларини оширish, ularнing mustaqil ishlash qobiliyatлari va amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishda ijobjiy samara beradi.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020





Har bir yo'naliш bo'yicha ularning tegishli turlari bor. O'qituvchilarning didaktik jarayonni noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, didaktik jarayonni obyektiv nazorat qilish shakllarini ishlab chiqish hamda o'quv-didaktik vositalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalarga ega bo'lish ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarining hosil bo'lشining kafolati bo'la oladi [3].




### 1-rasm. Didaktik vositalar

Ya'ni ular mashg'ulot jarayonida yoki ish o'rnida o'qituvchi tomonidan muntazam ravishda takrorlanadigan tadbirlarni bildiradi. Ular biror jarayonning barcha elementlarini qamrab oladi, misol uchun aniq bir nazariy darsni yoki instruktajni o'tkazish uchun «Tayyorgarlik ko'rish-O'tkazish-Baholash» kabi harakatlar kerak.

Didaktik xatti-harakatlar quyidagi savollar bilan uzviy bog'langan:


1. Geografiya fani o'qituvchisi;
2. Geografiya fanida o'quvchini o'qitish;
3. Maqsad: O'qitish orqali geografik tushunchalarni shakllantirish;
4. "Qadim zamonda odamlar Yerni qanday tasavvur qilishgan?" mavzusi;
5. Mavzuni Aplikasiya usulidan foydalanish;
6. Nazariy va amaliy sharoitda dars o'tkaziladi;
7. Dars sharoiti tarqatma manbalarni amalga oshirish orqali tashkil qilish kerak;
8. "Qadim zamonda odamlar Yerni qanday tasavvur qilishgan?" mavzusi bo'yicha Eratosfen va Ptolemey xaritalaridagi geografik ob'ektlarni o'z o'rniga joylash orqali ikkita xaritadagi geografik ob'ektlar to'g'risida tushuncha hosil bo'ladi.





13-SON

20.11.2022



**2-rasm. Miloddan avvalgi 3-asrda Eratosfen tuzgan dunyo xaritasi.  
Milodiy 2-asrda Ptolemey tuzgan dunyo xaritasi [4].**




Bunday o'quv va didaktik materiallar umumiy va keng qamrovli tasavvurni vujudga keltirishni osonlashtiradi.

O'quv didaktik vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad, mo'ljallangan guruh, maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rinn tutadi. Nihoyat o'qituvchi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak [5].

Demak, geografiya ta'limida məktəb o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda:

- o'quvchilarda bolalikdan bilimlarni sodda usullar yordamida shakllantirib borishimiz zarur;
- o'quvchilar dunyoqarashini shakllantiruvchi vositalar xilma xil bo'lishi lozim;
- məktəb darsligi mavzulari mazmuni asosida samarali vositalardan foydalanish usullari keng joriy qilinishi kerak.





## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. *Ahmedjanov M.M., To'xtaeva Z.Sh. Didaktik vositalar majmuasi. O'quv qo'llanma.*
4. P. G'ulomov, R. Qurbonniyozov 5-sinfi uchun darslik. Tabiiy geografiya. Boshlang'ich kursi. Toshkent — «Yangiyo'l poligraf servis» — 2015
5. <https://elib.buxdu.uz>

